

# O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Turovov Maqsudjon Asatillo o‘g‘li**

Toshkent arxitektura — qurilish universiteti tadqiqotchisi

ORCID : 0009 0004 8680 9755

## **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Mamlakat hududlari kesimida transport infratuzilmasi darajasi, turistlar oqimi va logistika xizmatlari holati o‘zaro solishtirilgan. Mavjud muammolar aniqlanib, infratuzilma indeksleri asosida hududiy tengsizlik, jamoat transporti qamrovi va yo‘l tarmoqlarining sifati kabi omillar tahliliy va tanqidiy yondashuvda o‘rganilgan. Shu asosda transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali ichki turizmni kuchaytirish bo‘yicha aniq ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ichki turizm, transport infratuzilmasi, infratuzilma indeksi, logistika, jamoat transporti, hududiy rivojlanish, turizm salohiyati, davlat-xususiy sheriklik, turizm klasterlari, raqamli navigatsiya.

## **Аннотация**

В данной статье анализируется роль и значение транспортной инфраструктуры в развитии внутреннего туризма в Узбекистане. В разрезе территорий страны сопоставляются уровень транспортной инфраструктуры, туристский поток и состояние логистических услуг. Были выявлены существующие проблемы, а такие факторы, как территориальное неравенство, охват общественным транспортом и качество дорожных сетей, были изучены в аналитическом и критическом подходе на основе индексов инфраструктуры. На этой основе разработаны конкретные научно-практические предложения по укреплению внутреннего туризма за счет развития транспортной инфраструктуры.

**Ключевые слова:** внутренний туризм, транспортная инфраструктура, индекс инфраструктуры, логистика, общественный транспорт, территориальное развитие, туристский потенциал, государственно-частное партнерство, туристические кластеры, цифровая навигация.

## **Abstract**

This article analyzes the role and importance of transport infrastructure in the development of domestic tourism activities in Uzbekistan. The cross section of the country's territories compares the level of transport infrastructure, the flow of tourists and the state of logistics services. Existing problems have been identified and factors such as territorial inequality, public transport coverage and quality of road networks have been studied in an analytical and critical approach based on infrastructure indices. On this basis, specific scientific and practical proposals have been developed to strengthen domestic tourism through the development of transport infrastructure.

**Keywords:** domestic tourism, transport infrastructure, Infrastructure Index, logistics, public transport, territorial development, tourism potential, public-private partnership, tourism clusters, digital navigation.

## KIRISH

Dunyo miqyosida turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o‘shish manbai, balki madaniy aloqalarni kuchaytiruvchi va mintaqalar o‘rtasidagi barqaror rivojlanishni ta‘minlovchi omil sifatida ham qaraladi. Turizm faoliyati mamlakat iqtisodiyotida yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohaslarini rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko‘paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ichki turizm — fuqarolarning mamlakat ichida sayohat qilishi — so‘nggi yillarda O‘zbekistonda strategik yo‘nalish sifatida davlat siyosatining markaziy qismiga aylandi.

O‘zbekistonda ichki turizmni rag‘batlantirish maqsadida bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda: tarixiy va madaniy obyektlar obodonlashtirilmoqda, yangi dam olish maskanlari tashkil etilmoqda, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan hujjatlar qabul qilinmoqda. Ammo ushbu jarayonda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan eng muhim masalalardan biri — bu transport infratuzilmasidir. Turizm sohasining barqaror va izchil rivojlanishi transport tizimining holati, qulayligi va samaradorligiga chambarchas bog‘liq.

Turizm — bu harakat, ya‘ni insonlarning bir joydan ikkinchisiga safar qilishi demakdir. Agar transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, hatto eng jozibador turistik manzillar ham amalda ommaviy sayohatlar uchun noqulay bo‘lib qoladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ichki turizmni keng qamrovli rivojlantirish uchun transport yo‘llari, vokzal va aeroportlar, jamoat transporti tizimi, turistik yo‘nalishlarni belgilab beruvchi navigatsiya vositalari, shuningdek, logistika xizmatlarining mavjudligi juda muhimdir.

Ayniqsa, O‘zbekiston kabi katta hududga ega, tarixiy va geografik jihatdan turli xillikka boy mamlakatda, transport infratuzilmasining yaxlit va o‘zaro uyg‘un tarzda ishlashi ichki turizm rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatdagi yirik shaharlar — Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm o‘rtasida temir yo‘l va avtomobil yo‘llari qatnovi faol rivojlanmoqda. Biroq, chekka hududlarda, ayniqsa tog‘li va cho‘l hududlarda transport aloqalari hanuz qoniqarsiz holda qolmoqda. Shuningdek, jamoat transporti yo‘nalishlarining yetishmasligi, axborot-informatsiya xizmatlarining yo‘qligi, ko‘p hollarda turistlarning erkin harakatlanishini cheklamoqda.

Har bir davlat o‘z iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun turizm singari ko‘p tarmoqli, yuqori daromad keltiradigan sohalarga alohida e‘tibor qaratadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ichki turizm faoliyatini jadal rivojlantirish mamlakat ichidagi iqtisodiy faollikni oshirish, infratuzilmani yaxshilash, aholi turmush darajasini ko‘tarish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida esa ichki turizm nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, ma‘naviy va strategik ahamiyatga ega sohalardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston — tarixiy merosi, milliy an‘analari va betakror tabiiy landshaftlari bilan yurtimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Biroq

mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun kerakli sharoitlar yaratilishi shart. Buning eng muhim shartlaridan biri — transport infratuzilmasining rivojlangan bo‘lishi hisoblanadi. Agar mamlakat ichida turistlar uchun qulay, xavfsiz, sifatli va muttasil transport tizimi yaratilmasa, turizmning rivojlanishi sekinlashadi, turizm salohiyati to‘liq ishga tushmaydi.

Ayniqsa, ichki turizmning asosiy to‘siqlaridan biri sifatida ayrim hududlardagi yo‘llar holatining qoniqarsizligi, temir yo‘l va aviaqatnovlarning cheklanganligi, jamoat transporti yo‘nalishlarining notizimliliqi qayd etiladi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan navigatsiya vositalarining yetishmasligi, turistik yo‘l ko‘rsatkichlar, axborot markazlari va logistika infratuzilmasining kamligi mavjud muammolar qatoriga kiradi.

Bunday sharoitda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida transport infratuzilmasini yaxshilash nafaqat amaliy ehtiyoj, balki strategik zaruratga aylanadi. Chunki: birinchidan, ichki turizm orqali aholi mamlakatning turli hududlari bilan tanishadi, milliy birlik va hududlararo integratsiya kuchayadi; ikkinchidan, transport infratuzilmasining yaxshilanishi orqali chekka hududlarda iqtisodiy faollik ortib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi; uchinchidan, zamonaviy transport tarmoqlari turistlar oqimini tashkil etishda, ularning harakatini boshqarishda va xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega; to‘rtinchidan, transport xizmati turizm industriyasiga bevosita xizmat ko‘rsatadigan sohalar (mehmonxona, umumiy ovqatlanish, gidlik xizmatlari, mahalliy tadbirkorlik va h.k.) faoliyatini rag‘batlantiradi.

Mamlakatimiz hududlarida yangi turizm industriyasi obyektlarini ko‘paytirish orqali qulay sayohat qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jahon bozorida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, ichki turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish, transport logistikasidagi mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, soha uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadida [1]:

2024-yil 1-sentyabrdan boshlab kirish turizmi faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan turoperatorlarni xorijiy mamlakatlardan respublikaga turistlarni olib kelishda aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan respublika tijorat banklari orqali 50 million AQSh dollari ekvivalentida milliy valyutada yillik 14 foiz stavkada kredit liniyasi ochiladi. Bunda:

- Tijorat banklari tomonidan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi resurslari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha belgilangan yillik foiz stavkasi tarkibida bank marjasi 3 foizdan oshmagan miqdorda o‘rnatiladi;

- Kredit mablag‘lari turoperatorlarga 2 yillik imtiyozli davr (foiz va asosiy qarzdand) bilan 10 yil muddatga ajratiladi;

- Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan tijorat banklariga resurslar 3 yillik imtiyozli davr bilan 12 yil muddatga ajratiladi.

O‘zbekistonda ichki turizmni faollashtirishga qaratilgan davlat dasturlari va tashabbuslar mavjud bo‘lsa-da, ularni amaliyotda samarali tatbiq etish uchun transport infratuzilmasini mustahkamlash birinchi darajali vazifa sifatida ko‘rilishi lozim.

Jumladan, turistik manzillarga olib boruvchi yo‘llarni ta‘mirlash, maxsus avtobus va qatnov yo‘nalishlarini joriy qilish, zamonaviy vokzal, avtovokzal va logistika markazlarini qurish, elektron chiptalar va mobil navigatsiya tizimlarini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar bu sohadagi asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki turizm va transport infratuzilmasi masalasi ko‘plab mahalliy va xalqaro tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ammo mavjud ilmiy ishlar mazmunan turlicha yo‘nalishlarga ega bo‘lib, ularning tahliliy darajasi, amaliyot bilan bog‘liqligi hamda konseptual yondashuvi har xil.

M. Mirzaev o‘zining "Turizm va infratuzilma: o‘zaro bog‘liqlik masalalari" nomli tadqiqotida turizm infratuzilmasi, ayniqsa transport infratuzilmasining ichki turizm rivojiga ta‘sirini keng yoritgan. U turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda transport tizimi yaxshi rivojlanmaganini qayd etadi [2]. Olimning asosiy xulosasi — "turistik makonlarga yetib borish imkoniyati qanchalik qulay bo‘lsa, u manzilning jozibadorligi shunchalik ortadi". Bu fikr amalda to‘g‘ri, biroq tadqiqotda chuqur iqtisodiy tahlillar, investitsiya hajmlari va amaliy loyihalar tavsiya etilmagan, ya‘ni nazariy yondashuv ustun.

J. Saidov tomonidan olib borilgan "O‘zbekistonda transport siyosati va uning turizmga ta‘siri" mavzusidagi tahliliy ishda transport infratuzilmasining hududiy rivojlanish bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilingan [3]. U mamlakatda yo‘l tarmoqlarining faol rivojlanayotganini ta‘kidlagan holda, ayrim chekka hududlarda bu jarayon sekin kechayotganini, markazlashgan yondashuv mavjud ekanini tanqid qilgan. Uning tahlillarida jamoat transporti samaradorligini oshirish, joylarda ixtisoslashgan turistik marshrutlar tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar mavjud.

N. Imomnazarova esa ichki turizmni rivojlantirishda logistika tizimlarining ahamiyatini alohida ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, "turizm va logistika o‘rtasidagi bog‘liqlikni hali ko‘pchilik to‘liq anglab yetmagan, ammo aynan shu tarmoqlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish kelgusidagi barqaror o‘sish garovidir" [4]. Olimning ishi mazkur yo‘nalishga yangi yondashuv olib kirgan bo‘lsa-da, transport infratuzilmasining texnik detallarini kam qamrab olgan.

Xalqaro darajada esa UNWTO (Jahon turizm tashkiloti) tomonidan e‘lon qilingan "Tourism and Transport in the Post-COVID World" hisobotida pandemiyadan so‘nggi turizmda transport infratuzilmasini qayta ko‘rib chiqish zarurligi ta‘kidlangan. Hisobotda mamlakatlar transport xizmatlarini raqamlashtirish, "smart mobility" konsepsiyasini joriy etish orqali ichki turizmni qo‘llab-quvvatlashi kerakligi aytiladi [9]. Unda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida tavsiyalar berilgan bo‘lsa-da, hisobot umumiy tavsiyalardan iborat bo‘lib, har bir mamlakatning real sharoiti yetarli darajada hisobga olinmagan.

Shuningdek, YUNESKOning "Madaniy meros va sayohat imkoniyatlari" mavzusidagi 2022-yilgi hisobotida turizm va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlik madaniy meros obyektlari misolida tahlil qilingan [10]. Bu hisobotda jahon tajribasidan kelib chiqib, infratuzilmasi rivojlangan hududlarga turistlar oqimi ikki baravarga oshib borishi statistik ma‘lumotlar orqali asoslab berilgan.

Tanqidiy jihatdan qaralganda, ko'plab tadqiqotlar infratuzilmaning ahamiyatini keng yoritgan, ammo ularning aksariyatida transport infratuzilmasining texnik-me'moriy holati, sarmoyaning faol jalb qilinishi, transport yo'nalishlarini optimallashtirish va raqamlashtirish kabi muhim masalalar chuqur o'rganilmagan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitiga mos keladigan modellar taklif etilmagan hollari ham mavjud.

A. Yuldoshev tomonidan ichki turizmni rivojlantirishda transport logistikasi ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Uning fikriga ko'ra, "turistik yo'nalishlar logistika tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqilmasa, turistlarni jalb qilish bo'yicha har qanday tashviqot samarasiz bo'ladi" [5]. Olim turizm logistikasini xususiy sektor bilan integratsiya qilish g'oyasini ilgari suradi. Ammo ishda murakkab hududlardagi logistika to'siqlari va sarmoya mexanizmlari yetarli yoritilmagan.

Xalqaro tadqiqotchilardan H. Xalid va A. Azizlar tomonidan Malayziya tajribasi misolida "transport-led tourism development" konsepsiyasi tahlil qilinadi. Ularga ko'ra, "avtomobil, temir yo'l va havo qatnovi to'g'ri integratsiya qilingan davlatlarda ichki turizm nafaqat faol, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun dastur bo'ladi" [8]. Ularning ishi O'zbekiston uchun muhim model sanalishi mumkin. Biroq mazkur tadqiqot tropik davlat sharoitida amalga oshirilgani bois, uning barcha jihatlari O'zbekiston sharoitiga to'g'ridan-to'g'ri mos kelmaydi.

Sh. Nazarovning olib borgan tadqiqotlarida "Ichki turizmga samarali transport boshqaruvini tashkil etish" mavzusidagi maqolasida mavjud transport yo'nalishlarining notegishli rejalashtirilganini tanqid qiladi. U mahalliy turistlar uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarning davlat va xususiy sektor o'rtasida noteng taqsimlanganini ta'kidlaydi [6]. Tadqiqotda muammolar yaxshi aniqlangan, ammo yechim sifatida taklif etilgan choralar umumiy tavsiyalar ko'rinishida bo'lib, tahlil qilingan holda iqtisodiy yoki huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlanmagan.

I. Muhammadov tomonidan tayyorlangan "Transport infratuzilmasi va mahalliy turizm o'rtasidagi o'zaro ta'sir" mavzusidagi tadqiqotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda qishloq turizmiga e'tibor qaratilib, ayniqsa tog'li hududlarda transport aloqalari yo'qligi ichki turizm rivojiga jiddiy to'siq ekani ko'rsatilgan [7]. Olimning ishida o'rganilgan holatlar aniq, misollar boy, ammo iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi hisob-kitoblar kam.

Bundan tashqari, European Travel Commission (ETC)ning "Transport and Tourism Connectivity" hisobotida Yevropa davlatlarida ichki turizm rivoji uchun jamoat transporti, velosiped yo'laklari va jamoaviy harakat tizimlarining samaradorligi haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan [11]. Mazkur hisobot ko'p jihatdan qimmatli, ammo rivojlanayotgan mamlakatlar realiyatini chekli darajada qamrab olgan.

Umuman, mavjud adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradi: ko'plab tadqiqotlar mavzuda nazariy yondashuvda qolib ketgan, transport va turizm o'rtasidagi o'zaro ta'sirni real ma'lumotlar, zamonaviy transport texnologiyalari va iqtisodiy ta'sir ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish kam. Shu sabab, amaliyotga yo'naltirilgan, investitsiya-moliya mexanizmlari, raqamlashtirish, klasterlashtirish va davlat-xususiy sheriklikka oid aniq takliflarga asoslangan yangi tadqiqotlarga ehtiyoj katta.

## METODOLOGIYA

O‘zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini tashkil etish samaradorligini oshirishni ilmiy tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha ichki turizm oqimi va transport infratuzilmasining holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish uchun yuqoridagi jadvalda asosiy ko‘rsatkichlar — turistlar oqimi, transport infratuzilmasi darajasi, yo‘llar sifati va jamoat transporti qamrovi solishtirildi (1-jadval).

1-jadval

### Hududlar bo‘yicha turizm va transport infratuzilmasi tahlili<sup>1</sup>

№	Hududlar	Turistlar oqimi (ming kishi)	Transport infratuzilmasi (10 ballik)	Yo‘l tarmog‘i sifati (10 ballik)	Jamoat taransporti qamrovi (foizda)
1	Toshkent	1200	9	8	85
2	Samarqand	850	8	7	75
3	Buxoro	780	7	6	70
4	Surxondaryo	290	4	4	40
5	Qoraqalpog‘iston	200	3	3	35
6	Navoiy	330	5	5	50
7	Farg‘ona	510	6	6	60

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarning tahlil natijalariga ko‘ra shuni ta’kidlash mumkinki:

- Yuqori infratuzilma — yuqori turist oqimi: Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi hududlarda transport infratuzilmasi rivojlangan, yo‘l tarmoqlari yaxshi holatda va jamoat transporti keng qamrovli. Bu hududlarda turistlar oqimi 700 mingdan 1,2 milliongacha yetib bormoqda. Bu ko‘rsatkichlar transport infratuzilmasi bilan turizm rivoji o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

- Qisman infratuzilma — past turist oqimi: Navoiy va Farg‘ona viloyatlarida transport infratuzilmasi o‘rtacha darajada bo‘lib, jamoat transporti qamrovi ham cheklangan. Turistlar oqimi mos ravishda 330 va 510 ming kishini tashkil etmoqda. Bu hududlarda infratuzilmani yaxshilash orqali sayohatchilar sonini keskin oshirish mumkin.

- Yetarli infratuzilmaning yo‘qligi — turizm salohiyati ro‘yobga chiqmagan: Qoraqalpog‘iston va Surxondaryo kabi hududlarda transport infratuzilmasi darajasi va yo‘l sifati 3–4 ball atrofida bo‘lib, jamoat transporti qamrovi 35–40 %ni tashkil etadi. Ushbu hududlarda tabiiy va madaniy turizm salohiyati yuqori bo‘lishiga qaramay,

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

turistlar oqimi 200–290 ming atrofida qolmoqda. Bu holat infratuzilmaning rivojlanmagani tufayli mavjud turizm imkoniyatlari to‘liq ishlatilmayotganini ko‘rsatadi.

- **Jamoat transportining roli:** Jamoat transporti qamrovi turistlar oqimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, Buxoroda infratuzilma darajasi nisbatan past bo‘lsa-da, transport qamrovi 70 % bo‘lgani bois turistlar oqimi yuqori. Bu jamoat transporti turizmga hal qiluvchi omillardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, hududlar bo‘yicha turizm va transport infratuzilmasi sohasida quyidagi muammolar mavjud:

- Mamlakat miqyosida transport infratuzilmasini rivojlantirishda hududiy notenglik saqlanib qolmoqda. Markaziy va tarixiy shaharlarga e’tibor yuqori, chekka va iqtisodiy jihatdan zaif hududlar esa yetarlicha qamrab olinmagan.

- Turistik marshrutlar logistikasi aniq belgilanmagan. Avtobus, poyezd va havo qatnovlari o‘zaro bog‘lanmagan holda ishlamoqda.

- Turistlar uchun mo‘ljallangan maxsus jamoat transporti — masalan, "turistik avtobuslar", "multi-pass transport" xizmatlari — joriy etilmagan.

- QR-kodli axborot tizimlari, interaktiv xaritalar va navigatsiya platformalari hali juda cheklangan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, transport infratuzilmasi va turizm rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlik O‘zbekiston sharoitida ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Yuqori infratuzilma bo‘lgan hududlarda turistlar oqimi yuqori, yetarli transport imkoniyati bo‘lmagan hududlarda esa turizm salohiyati to‘liq ishlatilmayapti. Demak, ichki turizmni keng qamrovli va barqaror rivojlantirish uchun transport infratuzilmasini hududiy tenglik asosida qayta tashkil etish, jamoat transporti xizmatlarini kengaytirish, raqamli axborot tizimlarini joriy qilish hamda logistika va marshrutlar muvofiqligini ta’minlash zarur (2-jadval).

**2-jadval**
**Turizm infratuzilmasi bo‘yicha hududlar taqqoslamasi<sup>1</sup>**

№		Hududlar	Turistlar oqimi (ming kishi)	Transport infratuzilmasi (10 ballik)	Yo‘l tarmog‘i sifati (10 ballik)	Jamoat taransporti qamrovi (foizda)	Turizm infratuzilma indeksi
1	0	Toshkent	1200	9	8	85	8,55
2	1	Samarqand	850	8	7	75	7,55
3	2	Buxoro	780	7	6	70	6,69
4	6	Farg‘ona	510	6	6	60	6,00
5	5	Navoiy	330	5	5	50	5
6	3	Surxondaryo	290	4	4	40	4
7	4	Qoraqalpog‘iston	200	3	3	35	3,15

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi jadvalda turizm infratuzilmasini baholash uchun maxsus indeks shakllantirildi. Ushbu indeks quyidagi tarkibiy qismlarga asoslangan:

- Transport infratuzilmasi darajasi (40 %)
- Yo‘l tarmoqlari sifati (30 %)
- Jamoat transporti qamrovi (30 %), 10 ballik shkala bo‘yicha normallashtirilgan holda.

Bu indeks hududdagi umumiy infratuzilma salohiyatini kompleks baholash imkonini beradi. Indeks asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Toshkent – yuqori infratuzilma va turistlar oqimi yetakchisi. Toshkent shahri 8.55 indeks bilan yetakchi o‘rinda turibdi. Bu yerda transport tarmoqlari yaxshi rivojlangan, yo‘l sifati yuqori, jamoat transporti esa 85 %ni qamrab olgan. Bu holat shaharga turistlar oqimidagi 1,2 million ko‘rsatkich bilan to‘liq mos tushadi. Boshqa hududlar uchun Toshkent modeli — amaliyotda ish beruvchi infratuzilma yo‘nalishi hisoblanadi.

2. Samarqand va Buxoro – barqaror infratuzilma, yuqori jozibadorlik. Samarqand (7.55) va Buxoro (6.70) shaharlarida transport imkoniyatlari ma‘lum darajada qoniqarli. Ularning infratuzilmasi barqaror, biroq Toshkentga nisbatan jamoat transporti imkoniyatlari kamroq. Turizm oqimi yuqori bo‘lsa-da, infratuzilma indeksidagi farq ularning hududiy cheklanganligini ko‘rsatadi.

3. Farg‘ona va Navoiy – o‘rtacha infratuzilma, salohiyatni to‘liq ochmagan hududlar. Farg‘ona (6.00) va Navoiy (5.00) viloyatlarida infratuzilma o‘rtacha darajada. Turistlar oqimi mavjud, ammo potensialga nisbatan past. Jamoat transporti kamroq qamrovga ega, yo‘llar sifat jihatidan ham orqada qolgan. Bu hududlarda maxsus turistik transport marshrutlari, logistika markazlari va raqamli navigatsiya tizimlari joriy etilsa, infratuzilma indeksi ortishi bilan sayohatchilar soni sezilarli o‘sishi mumkin.

Turizm infratuzilmasi bo‘yicha hududlar taqqoslamasi natijalariga ko‘ra quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- Turistlar oqimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri transport infratuzilmasi indeksi bilan bog‘liq.
- Infratuzilma yetarli bo‘lmagan hududlarda, hatto boy madaniy meros mavjud bo‘lsa ham, turistlar oqimi past.
- Rivojlanmagan hududlarga maqsadli ravishda sarmoya jalb qilish, transport yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish — turizm salohiyatini to‘liq ochishga xizmat qiladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish masalasi milliy iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatdagi boy tarixiy, madaniy va tabiiy salohiyatdan samarali foydalanish, fuqarolarning turizm sohasidagi ishtirokini kuchaytirish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta‘minlashning eng muhim shartlaridan biri — bu transport infratuzilmasining rivojlanish darajasidir.

Tahlillar va jadvallardan ko‘rinib turibdiki, transport infratuzilmasi, xususan transport tarmoqlari holati, jamoat transporti qamrovi va yo‘l tarmoqlarining sifati

to'g'ridan-to'g'ri turistlar oqimiga ta'sir qilmoqda. Turizm infratuzilmasi indeksi orqali hududlar o'rtasidagi farqlar ochiq ko'rinib turibdi:

- Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida infratuzilma yuqori darajada bo'lib, bu hududlarda ichki turizm jadal rivojlanmoqda;
- Surxondaryo, Qoraqalpog'iston va Navoiy viloyatlarida transport imkoniyatlari cheklangan, turistik marshrutlar mukammal emas, jamoat transporti yetarlicha qamrab olmagan — natijada, bu hududlar turizm bozorida yetarlicha namoyon bo'la olmayapti.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va o'rganilgan jadvallarda ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Ichki turizm faoliyati transport infratuzilmasining holatiga to'liq bog'liq. Turistik salohiyatga ega hududlarga oson, qulay va xavfsiz yetib borish imkoniyati mavjud bo'lmasa, sayyohlik rivoji cheklanadi. Jahon tajribasida bu holat isbotlangan.

2. Transport infratuzilmasi indeksini joriy etish va nazorat qilish mexanizmlari yaratilishi kerak. Har bir hududning turizm bo'yicha infratuzilma ko'rsatkichlari doimiy monitoring qilinishi, ular asosida tahlil va mablag' taqsimoti amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

3. Hududiy tengsizlikni bartaraf etish strategik zarurdir. Turizmni faqat markaziy shaharlar atrofida rivojlantirish — ichki bozorning to'liq salohiyatini to'sadi. Shu bois chekka va infratuzilmasi sust rivojlangan hududlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

4. Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish infratuzilmani tezkor rivojlantirish vositasidir. Turizm marshrutlariga moslashtirilgan transport vositalari, yo'nalishlar va logistika xizmatlari xususiy sektor ishtirokida yaratilishi natijadorlikni oshiradi.

5. Transport xizmatlarini raqamlashtirish — raqobatbardoshlik shartidir. QR-kodli marshrut xaritalari, mobil ilovalar, real-time harakat jadvallari, elektron chiptalar tizimi va intellektual logistika xizmatlari turizm sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

6. Turistik klasterlar atrofida maxsus infratuzilma zonalarini tashkil etish kerak. Samarqand, Termiz, Qo'qon, Nukus kabi hududlarda "turizm–transport–xizmat ko'rsatish" birligida ishlovchi klaster modellarini joriy etish orqali turizm hajmini bir necha baravarga oshirish mumkin.

7. Transport infratuzilmasining rivoji faqat turistlar uchun emas, balki mahalliy aholi hayot sifati uchun ham muhim. Turizm maqsadida yaratilgan zamonaviy transport tarmoqlari aholi mobilligini ham yaxshilaydi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani tezlashtiradi.

Ichki turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasi shunchaki vosita emas — balki strategik asos hisoblanadi. U mamlakatning iqtisodiy o'sishi, madaniy aloqalarining kengayishi, ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanish uchun zamin yaratadi. Shu bois, bu yo'nalishdagi islohotlar tizimli, tadrijiy va innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshirilishi shart.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyul PF-102-son "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar

oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/7031233>

2. Мирзаев М. Туризм ва инфратузилма: ўзаро боғлиқлик масалалари. — Тошкент: Иқтисод-Молия, 2020.

3. Саидов Ж. Ўзбекистонда транспорт сиёсати ва унинг туризмга таъсири. - Самарқанд: Ривоч, 2019.

4. Имомназарова Н. Туризм логистикасини ташкил этишнинг замонавий ёндашувлари. - Тошкент молия институти илмий журнали, №3, 2021.

5. Юлдошев А. Туризм логистикаси ва ички туризмни ташкил этиш. - Иқтисодіуот ва таълим, №4, 2018.

6. Назаров Ш. Ички туризмда транспорт бошқарувини такомиллаштириш. - “Туризм соҳасида инновациялар”, №1, 2022.

7. Муҳаммедов И. Транспорт инфратузилмаси ва маҳаллий туризм. - “Иқтисодий таҳлил ва ривожланиш”, №3, 2021.

8. Khalid H., Aziz A. Integrated Transport Systems for Domestic Tourism Growth. - Journal of Tourism Planning, Malaysia, Vol. 6, 2020.

9. UNWTO. Tourism and Transport in the Post-COVID World. - Жаҳон туризм ташкилоти, 2021. - [www.unwto.org](http://www.unwto.org)

10. UNESCO. Cultural Heritage and Travel Access Report. - Париж: ЮНЕСКО, 2022. - [www.unesco.org](http://www.unesco.org)

11. European Travel Commission. Transport and Tourism Connectivity. - Brussels, 2020. - [www.etc-corporate.org](http://www.etc-corporate.org)



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**